

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOVA GULYAYRA QO‘LDOSHEVNA

**MOCHEVINA VA HOSILALARINING NITRAT, FOSFAT TUZLARI
SINTEZI, XOSSALARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

УДК 541.49+538.113+544.18+546.56.71.74.76.88+547.447.461.484.574

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Xoliqova Gulyayra Qo'ldoshevna

Mochevina va hosilalarining nitrat, fosfat tuzlari sintezi, xossalari 3

Холикова Гуляйра Кулдошевна

Синтез, свойства нитратных, фосфатных солей мочевины и её производных
.....21

Kholikova Gulyayra

Synthesis and properties of nitrate and phosphate salts of urea and its
derivatives..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOVA GULYAYRA QO‘LDOSHEVNA

**MOCHEVINA VA HOSILALARINING NITRAT, FOSFAT TUZLARI
SINTEZI, XOSSALARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4PhD/K683 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mardonov O'ktam Mardonovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Zuxra Chingizovna
kimyo fanlari doktori, professor

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «31» mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__raqami bilan ro'yxatga olingan). (Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy)


Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «19» mart kuni tarqatildi.

(2026 yil «18» mart dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi)



 **T.S. Xoliqov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

 **U.O. Ro'zmetov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

 **Sh.A. Kadirova**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning kimyoviy, biologik, tibbiyot va texnologik amaliyotlarida organik va noorganik moddalar asosidagi molekulyar kompleks birikmalar keng qo'llanilayapti. Sintez qilingan ko'p funksiyali, tarkibida amin va karbonil guruhlari tutgan amidlar qatoriga kiruvchi mochevina va hosilalarining noorganik kislotalar bilan molekulalar komplekslari hamda ularning eritmalari agrokimyoviy, biologik faollik va o'ziga xos xususiyatli maxsus moddalar xossalarini namoyon qiladilar. Shu sababli bunday moddalarni sintez qilish, tarkiblarini aniqlash, xossalarini tadqiq etish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini izlab topish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bugungi kunda amidlar, shu jumladan mochevina va uning hosilalarini har tomonlama qo'llash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilayapti. Ular asosida turli moddalarni sintez qilish, ularni ajratib olishning yangi usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish sharoitlarini optimallashtirish bu tadqiqotning maqsad va vazifalarini tashkil etadi. Mochevina va hosilalarining faol funksional guruhli, molekulyar komplekslarini olish usullari, tarkibi, tuzilishi, xossalari va qo'llanilish sohalari o'zaro bog'liqligini hozirgi zamon tadqiqot usullaridan foydalanib nazariy asoslash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kimyo sanoatini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan chiqindisiz, ko'p funksiyali noorganik moddalar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ichki bozorni import o'rini bosadigan samarali mahalliy sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun erituvchilar, antipirenlar, korroziya ingibitorlari va sanoat chiqindilaridan noorganik pigmentlar sintez qilishning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha aniq maqsadli, keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026" yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy xom ashyolar asosida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekologik toza va iqtisodiy samarador texnologiyalarni yaratish, yangi qo'shimcha qiymatli kimyoviy mahsulotlar sintez qilish va ulardan turli maqsadlarda foydalanishning qo'shimcha imkoniyatlarini yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2019 yilning 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda

mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda qo'shilgan hissa bo'lib, ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Noorganik moddalar kimyosi bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida molekulyar kompleks birikmalari sintezi, tarkibi, tuzilishi, xossalari o'rganish usullari bo'yicha keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishda Klemperer W., Lipkowski J., Morokuma K., Bishop R., Bauder A., Herman M., Buchachenko A.L., Person W.B., Zhao X., Coe B.J., Lavachchi A. kabi olimlar tadqiqotlari salmoqli ahamiyatga ega.

Kompleks birikmalar kimyosining nazariy va amaliy muammolari tadqiqotlari bo'yicha Babkina T.S., Kuznetsov A.V., Zuban A.B., Kosova D.A, Shenkin Y.S., Davidov Y.I., Khusanov E.A, Shukhurov Z.A, Petrenko Yu.M, Turker L., Gumush S., Mirsaidov U.I. boshchiligidagi olimlar va maktablari vakillari tadqiqotlarining ilmiy-amaliy natijalari munosib o'rin tutadi.

Respublikamizda kompleks birikmalar kimyosi sohasiga Parpiyev N.A., Sharipov X.T., hozirda davom ettirayotgan Ibragimov B.T., Xo'jayev O.F., Shobilolov O.A., Umarov B.B., Kadirova Sh.A., Kadirova Z.Ch., Daminova Sh.Sh., Sobirov V.A., To'rayev X.X., Ibragimov A.B. kabi olimlar samarali tadqiqotlar olib borishyapti. Amid moddalarning turli kislota va formaldegidli hosilalari addukt va yuqori molekulyar birikmalari sintezi, korroziya ingibitorligi va antipiren xossalari tadqiqotlari Djalilov A.T., Akbarov H.I., Guro V.P., Abdullayev Sh.A., Eshmamatova N.B., Nurqulov F.N., fizik-kimyoviy tahlili va agrokimyoviy xossalari akademiklar Beglov B.M., Namozov Sh.S. shogirdlari Kucharov B.Kh., Tadjiev S.T. va boshqalar tomonidan olib borilayapti, bu tadqiqotlar natijalari karbamid va fosforli birikmalar noorganik kimyosi hamda kimyoviy texnologiyasi rivojlanishiga qo'shilgan salmoqli hissadir. Shu bilan birga ilmiy ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, mochevina va hosilalarining nitrat, fosfatli molekulyar kompleks birikmalari sintezi, fizik-kimyoviy va polifunksional xossalari aniqlash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy nashrlar ma'lumotlari tahlilining ko'rsatishicha, mochevina va hosilalarining noorganik va organik kislotalar bilan molekulyar birikmalarining sintez usullarini ishlab chiqish, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (ZFKTU) bilan ularning tarkibi va tuzilishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, mochevina va hosilalarining nitrat, metafosfatli molekulyar kompleks birikmalarining fizik-kimyoviy, spektral, antipirenlik va korroziya ingibitorlik xossalari hamda ulardan amalda foydalanish sohasini aniqlash yetarlicha tadqiq etilmaganligi hozirda ushbu muammolar dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tabiiy va sintetik, organik, noorganik va koordinatsion birikmalar sintezi, tuzilishi, xossalari va tadqiqoti” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mochevina va hosilalarining nitrat, fosfat tuzlari sintezi, xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- mochevina va biuretning nitrat, metafosfat kislotalar bilan turli molekulyar nisbatlardagi birikmalari hosil bo‘lishi ehtimolliklari, molekulari atomlaridagi elektron va zaryadlar taqsimoti, kimyoviy bog‘lanish tabiati, molekular parametrlarini kvant-kimyoviy usullar (KKU) bilan tadqiq etish va asoslash;

- mochevina va biuretning nitrat hamda metafosfat kislotalari bilan turli molekulyar nisbatlardagi qattiq holdagi birikmalarini olish, ular eritmalarining xossalari aniqlash;

- mochevina va biuretning nitrat, metafosfatlari qattiq holdagi birikmalari hamda eritmaları fizik-kimyoviy, spektral va rentgenografik xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (ZFKTU) bilan tadqiq qilish;

- mochevina va biuret nitratlari eritmalarining “tarkib-xossa” bog‘liqligida tuproqdagi gumus komponentlari faolligini, texnologik jihozlar quyqalari eruvchanligini oshirish xossalari tadqiq etish, ular asosida noorganik pigmentlar olish.

- mochevina va biuret metafosfat birikmalari eritmalarining sellyuloza materiallari yong‘inbardoshligini oshiruvchanlik xossalari tadqiq etish, ular asosida antipiren tarkiblar olish.

- mochevina va biuret nitrat, metafosfatlarining turli texnik suvlar muhitlarida metall qotishmalarini korroziyadan himoyalash xossalari tadqiq etish, ular asosida korroziya ingibitorlari eritmalarini olish.

Tadqiqot obyekti Mochevina, biuret va ularning nitrat, metafosfatli birikmalari, kam eruvchan metall birikmalari, karton, mato, qog‘oz, yog‘och, St-3 va St-20 po‘lat, tuproq namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari kvant-kimyoviy parametrlari tahlili, kam eruvchan birikmalar eruvchanligi, tuproq namunalari, sellyuloza materiallari yonuvchanligi, St-3, St-20 po‘lat namunalari korroziyadan himoyalash jarayonlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarida KKHU ORCA, Gaussian dasturlari, IQ, EPR spektroskopiya, SEM-EDS, RFA, RTT, termik, gravimetriya, konduktometriya va pH-metriya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- kvant-kimyoviy hisoblashlar (KKU) asosida mochevina va biuretning nitrat, metafosfat kislotalari bilan 1:1÷1:3 molyar nisbatlardagi birikmalari hosil bo‘lishi imkoniyatlari aniqlanib, molekulari atomlaridagi elektron va zaryadlar taqsimoti, kimyoviy bog‘lanish tabiati, molekular energetik parametrlari aniqlanib, tarkib va tuzilishlari isbotlangan;

- mochevina va biuretning nitrat hamda metafosfat ionlari bilan 12 ta molekulyar birikmalari qattiq holda olinib, ularning tarkibi, tuzilishi va ular eritmaları xossalari ZFKTU bilan tadqiq etilib, qoʻllanish sohalari aniqlangan;

- birinchi marta EPR spektrometriya usuli bilan tuproqdagi gumus komponentlari faolligining karbamid nitratlari eritmaları muhiti pH-iga va nitrat-ionlari miqdoriga bogʻliqligi aniqlangan;

- mochevina nitratlari eritmalarining texnologik jihozlardagi quyqalar eruvchanligini 26.0-67.6 % gacha oshirishi, hosil boʻlgan eritmalarda $Fe^{2+/3}$ ionlari miqdorining yuqoriligi (18-23 g/l) aniqlanib, ular asosida texnologik chiqindilardan turli maqsadlarda ishlatiladigan noorganik pigmentlar olingan;

- karbamid va biuret metafosfat birikmalari eritmalarining sellyuloza materiallari yongʻinbardoshligini oshirish xossalari tadqiq etilib, ularning boʻz matosi, karton va yogʻoch namunalari yonuvchanligini (72.99-98.89% ga) kamaytirish xossasi aniqlanib, olingan natijalarga koʻra bu moddalar asosida samarador II guruh (G2) antipiren vositalari olish mumkinligi isbotlangan;

- mochevina va biuretning HNO_3 , HPO_3 bilan 1:1÷1:3 molyar nisbatlardagi 0.5-2.0% li kislotali, neytral eritmalarining texnik suvlar muhitida (St-3, St-20 poʻlat) qotishmalarni korroziyadan himoyalash xossalari gravimetriya, EPR spektrometriya (birinchi marta) usullari bilan $pH = 1.66 - 9.0$ oraligʻida tadqiq etilib, ularning 82.0 – 94.75 % korroziya ingibitorligi, optimal tarkiblari va metafosfatlarning yuqori konsentratsiyali (2.0%li) eritmalarida “korroziya inversiyasi” sodir boʻlishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- karbamid va biuret nitrat, metafosfatlari eritmalarining fizik-kimyoviy xossalarini oʻrganish natijalariga koʻra amalda keng qoʻllaniladigan polifunksional: kam eruvchan birikmalar eruvchanligini, tuproqdagi gumus moddalar, mikroelementlar faolligini oshiruvchi eritmalar olish usullari ishlab chiqilgan;

- mochevina nitratlari eritmalarining texnologik jihozlardagi quyqalarni eritish xossasi tadqiqotlari asosida takibida $Fe^{2+/3+}$ ionlari saqlagan eritmalar olingan, ularni turli usullar bilan qayta ishlab, qurilish, lok-boʻyoq ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan noorganik pigmentlar olingan;

- mochevina va biuret nitrat, metafosfatlari eritmalarining neft-gaz sanoati suvli eritmaları $pH = 1.66-9.0$ muhitlarida antikorroziya xossalari tadqiqotlari natijalariga koʻra takibida 0.5-1.0% MNM, MDN, MMMF, BMMF saqlagan yuqori samarador korroziya ingibitorlari eritmaları olish usullari yaratilgan;

- karbamid va biuret metafosfatlari eritmalarining sellyuloza materiallari: boʻz matosi, karton va yogʻoch namunalari yonuvchanligini (72.99-98.89% ga) kamaytirish xossasi aniqlanib, natijalarga koʻra bu moddalar asosida GOST 16363-98, GOST R 5081-0-95 boʻyicha II (G2) guruh yongʻindan himoyalash toifasiga mansub, amidfosfatli samarador antipen vositalari olish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mochevina va biuret nitrat, metafosfat birikmalari hosil boʻlishi, molekulyar parametrlarini KKH larida ORCA va Gaussian dasturlari, ular eritmalarining spektral, fizik-kimyoviy xossalari

tadqiqotlarida IQ-, EPR spektroskopiya, RTT, RFA, termik va gravimetrik tahlil, pH-metriya, konduktometriya usullaridan foydalanilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati KKV bilan mochevina va biuretning HNO_3 , HPO_3 bilan 1:1÷1:3 molyar nisbatlardagi birikmalari hosil bo'lishi imkoniyatlari, 12 ta molekulyar birikmalari olishning optimal sharoitlari aniqlanib, ularning tarkibi, tuzilishi, eritmalarini xossalari tadqiq etilib, tuproqdagi gumus komponentlari faolligi eritma pH-iga va NO_3^- miqdoriga bog'liqligi, texnologik jihozlardagi quyqalar eruvchanligini, sellyuloza materiallari yong'inbardoshligini oshirishi, texnik suvlar muhitida metall qotishmalarini korroziyadan himoyalash xossalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotlar natijalari asosida mochevina nitratlarining tuproqdagi gumus komponentlari faolligini oshirishi, texnologik jihozlardagi quyqalarni eritishi bilan chiqindilardan turli pigmentlar, mochevina va biuret metafosfatlari eritmalarining sellyuloza materiallari yong'inbardoshligini oshiruvchi antipiren vositalar, St-3, St-20 po'latlarning korroziya ingibitorlarini olish usullari yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari eritmalarining polifunksional xossalari namoyon etishi bo'yicha olingan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari asosida:

Mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari polifunksional eritmalarini korroziya ingibitorlari sifatida "Sho'rtan NGQCh" boshqarmasiga qarashli "gradirnaya" suv ta'minoti (подпитка) uskunasi metall konstruksiyalarini korroziyadan himoyalashda amaliyotga joriy qilingan ("Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish" boshqarmasining 2024-yil 03-maydagi № ОП02/Б0-1777- son ma'lumotnomasi). Natijada mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari asosida agressiv muhitda samarali korroziya ingibitorlari yaratish imkoniyatini bergan;

Mochevina mononitrati, biuret monogidratining molekulyar tuzulishi krisstallografik ma'lumotlari Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (CCDC 2511988, 2512468). Natijada, o'xshash birikmalarni tuzulishini tavsiflashda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 18 ta, jumladan, 5 ta respublika va 13 ta xalqaro anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 1 ta monografiya, 6 ta maqola (Respublika nashrlarida 2 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ektlari va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mochevina va uning asosidagi molekulyar komplekslar, ularning tadqiqotlari va qo'llanilish sohalari”** nomli I bobida ushbu mavzudagi mamlakatimiz va xorijiy nashrlaridagi tadqiqotlarning ilmiy ma'lumotlari umumlashtirilgan va ularning tahlili natijasida tadqiqotning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Mochevina va biuret nitratlari hamda metafosfatlari sintezi va ular eritmalarining tadqiqotlari”** nomli II bobda molekulyar kompleks birikmalarining sintezi va kimyoviy element tahlili, IQ, EPR spektrometriya, SEM-EDT, RFA, RTT, TGA/DSC, gravimetrik tahlillar, fotokolorimetriya, pH-metriya, konduktometriya usullari, molekulyar parametrlarni KKH ORCA va Gaussian dasturlari paketlari hamda ularni solishtirish bilan sintez qilingan molekulyar birikmalar tarkibi va tuzilishini aniqlash ma'lumotlari taqdim etilgan.


Dissertatsiyaning **“Mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari tadqiqotlari va ularning amalda qo'llanilish natijalari tahlili”** nomli III bobida olingan natijalar muhokamasiga bag'ishlangan. Mochevina va biuret nitrat va metafosfat birikmalarining sintezi, tarkibi, tuzilishi, xossalari kvant-kimyoviy hisoblash va zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlari natijalari tahlillari, ular asosidagi xulosalar keltirilgan. Sintez qilingan birikmalarining amalda qo'llanilish tadqiqotlari: tuproq tarkibidagi faol gumin kislotasi miqdorining oshirishi, antipireniklik va korroziya ingibitorligi xossalari o'rganilishi natijalari keltirilib, ularning amalda qo'llanilishi bo'yicha xulosalar qilingan.

Mochevina va biuret nitrat, metafosfat birikmalarining kvant-kimyoviy tadqiqotlari

Mochevina va nitrat kislota molekularining tarkibi, tuzilishi, elektron tabiati ular tarkibidagi elektron donorlik va akseptorlik xossalari ega bo'lgan O, N atomlari va ular asosidagi funksional guruhlar C=O, -NH₂, HO⁻ va NO₃⁻, H⁺ ionlar mavjudligi hamda ular ishtirokidagi kimyoviy o'zgarishlar DFT hisoblash usuli bilan o'rganilib, ularning natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra turli energetik holatlarda kuchli qutblangan ($\mu_{\text{CO(NH}_2)_2} = 4.30 \text{ D}$, $\mu_{\text{HNO}_3} = 2.30 \text{ D}$) moddalarning CO(NH₂)₂:HNO₃ = 1:1÷1:3 molyar nisbatlarida amid >C=O, -NH₂ guruhlari va kislotaning H, O atomlari tufayli [(H₂N)₂C=O]·n(H-ONO₂) (n=1,2,3) tarkibli molekulyar birikmalar (ion juftliklari) hosil bo'lishi isbotlandi (1-rasm). Natijalar CO(NH₂)₂:HNO₃ nisbatda HNO₃ miqdorining ortishi nazariy jihatdan 1:1÷1:3 molyar tarkiblarga mos keluvchi MNM, DNM, TNM birikmalar hosil bo'lishini tasdiqlaydi. Ular hosil bo'lishini isbotlochi umumiy energiya ($\Delta E_{\text{total}} =$

$E_{\text{total(additiv)}} - E_{\text{total(hisob)}}$ farqi ($\Delta E_{\text{total}} = -0.03, -55.67, -111.3$ eV) hosil bo‘ladigan birikmalar barqarorligining MNM < DNM < TNM qatorda ortib borishini ko‘rsatdi. Shunday energetik farq (ΔE_{total}) mochevina metafosfatlari (MMF) tadqiqotlarida aniqlanmadi. Ular $E_{\text{total(additiv)}}$ manfiy qiymati yig‘indisi ortib borishi bu moddalarning hosil bo‘lishini tasdiqlasada, ΔE_{total} qiymatlari o‘zaro yaqin bo‘lib, nisbiy barqarorliklari ulardan MN lari barqaror bo‘lishini ko‘rsatadi.

Yuqori energetik holat (E_{high}) Minimal energetik holat (E_{min}) Past energetik holat (E_{low})



1-rasm. Turli energetik holatlarda MN larda $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ va HNO_3 larning o‘zaro orientatsiyalari.

Biuret nitratlari-BN, metafosfatlari-BMF KKH larida $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ dan farqli holda, biuret $(\text{H}_2\text{N-CO})_2\text{NH}$ molekulasidagi atomlar soni, funksional guruhlar, ularning fazoviy (*sis-trans*) joylashuvi va molekuladagi aminoatsil ($\text{H}_2\text{N-C(O)-}$) guruhlarning -NH- fragmenti atrofida aylanishi e‘tiborga olindi. Bulardan BMF tarkibida HPO_3 miqdori ortishi bilan molekullarning EM, elektrofilligi, ΔN_{max} , μ , va umumiy energiyasi (E_{total}) ortib borishi, lekin biuret molekulasining fazoviy izomeriyasi (*sis-trans*) bunga ta’sir etmasligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.


Biuret, HPO_3 , BMF larning optimallashtirilgan KKH hisoblashlari bo‘yicha molekulyar parametrlari va deskriptorlari

Kvant-kimyoviy parameter	Biuret		HPO_3	BMMF		BDMF		BTMF	
	<i>sis</i>	<i>trans</i>		<i>sis</i>	<i>trans</i>	<i>sis</i>	<i>trans</i>	<i>sis</i>	<i>trans</i>
E_{HOMO} , eV	-6.916	-7.316	-9.28	-7.692	-8.015	-8.534	-8.607	-8.262	-7.916
E_{LUMO} , eV	-0.084	0.305	-1.79	-1.036	-0.789	-1.348	-1.607	-3.014	-4.367
$ \Delta E = E_{\text{LUMO}} - E_{\text{HOMO}}$, eV	6.832	7.621	7.49	6.656	7.226	7.186	7	5.248	3.549
Elektromanfiylik, (EM)									
$\chi = (I + A)/2$, eV	3.5	3.5055	5.535	4.364	4.402	4.941	5.107	5.638	6.1415
Elektrofillik ko‘rsat-kichi, $\omega = \mu_p^2/2\eta$, eV	1.793	1.6125	4.0903	2.8613	2.6817	3.3974	3.7259	6.057	10.6278

Maksimal zaryad uzatish indeksi, $\Delta N_{max} = -\mu_p/\eta$	1.0246	0.92	1.478	1.3113	1.2184	1.3752	1.4591	2.1486	3.461
Dipol momenti, μ , Debay)	7.5646	3.4607	3.2221	10.1254	9.094	9.4068	5.4583	10.4029	13.4065
Umumiy energiya, keV	-10.723	-10.724	-15.452	-26.173	-26.168	-41.623	-41.624	-57.074	-57.048

Biuretning *sis/trans* tuzilishlari $\mu_{Biur} = 7.5646$ D/ $\mu_{Biur} = 3.4607$ D qiymatlari nisbati 2.0 martadan yuqoriligi, *sis* – tuzilishda simmetriyaning pastligini isbotlaydi. Umuman, KKH larga ko‘ra, dastlabki moddalarga nisbatan BMF birikmalari dipol momentlari yuqori (9.0940-13.4065 D) bo‘lishi va bunga asoslanib, dastlabki moddalarga nisbatan BMF larning reaksiya qobiliyati, kimyoviy xossalari amalda farqli bo‘lishi to‘g‘risida xulosa qilindi. Bulardan faqat *trans*-BDMF eng kam ($\mu_{BDMF} = 5.4583$ D) qutblangan molekula bolib, bu har bir HPO_3 molekulasi *trans*-biuretning aminoatsil guruhlari O, H atomlari bilan H-bog‘lari va donor-aktseptor bog‘lanishi hosil qilishidan dalolat beradi.

KKH natijalari bo‘yicha BN va BMF larning E_{total} (*additiv*), E_{total} (*hisob*) qiymatlari farqlari ($\Delta E_{total} \approx 0,0$, KeV) kuzatilmaganligi bu moddalarning nazariy jihatdan hosil bo‘lishlari, lekin ular amalda qattiq holda beqaror bo‘lishlari mumkinligi yoki mahsulotning tarkibi dastlabki moddalar molyar nisbatlaridan farqli bo‘lishi, ya’ni ular hosil bo‘lishida inkogurientlik va invariantlik hodisalari namoyon bo‘lishidan dalolat beradi (1-jadval).



Mochevina nitrat va metafosfatlarining sintezi sxemasi

2-jadval


Mochevina va biuret nitrat va metafosfatlari kimyoviy tarkibi va ayrim fizik-kimyoviy xossalari qiymatlari

T/r	Birikmalar	χ , 25 °C, mS/sm	Rangi	Unum, %	t^o_{suyuq} , °C	Topilgan (%)			Hisoblangan (%)		
						C	H	N	C	H	N
1	MMN	160.1	Oq rangli groskopik moddalar	84	137.0	9.76	4.10	34.14	9.82	4.22	34.01
2	MDN	106.2		85.7	139.5	6.45	3.25	30.11	6.34	3.34	30.14
3	MTN	101.3		92.7	142.0	4.82	2.83	28.12	4.73	2.92	28.06
4	MMMF	42.3		82	145.2	8.58	3.60	20.01	8.61	3.23	19.8
5	MDMF	61.8		77.3	149.6	5.46	2.75	12.73	5.47	2.71	12.52
6	MTMF	75.4		94	153.1	4.00	2.35	9.34	4.01	2.24	4.00
7	BMN	38.9		81.9	152.1	14.46	3.64	33.73	13.10	2.96	32.50
8	BDN	56.5		87.2	157.2	10.49	3.08	30.57	10.10	3.25	31.20
9	BTN	69.2		79.6	159.8	8.22	2.76	28.77	8.10	2.64	28.23
10	BMMF	46.9		79.2	183.2	13.12	3.30	22.95	13.02	3.35	22.86
11	BDMF	49.8		80.5	163.8	9.13	2.68	15.98	9.03	2.78	15.64
12	BTMF	56.2		76.4	167.3	7.00	2.35	12.25	7.14	2.02	12.38


Mochevina va biuretning nitrat, metafosfat birikmalari tarkibi va tuzilishini FKTU bilan tadqiq etish natijalari

1-sxema bo‘yicha sintez qilingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari ZFKTU bilan aniqlandi va o‘rganildi (2-jadval). Mochevina va MN hamda MMMF, MDMF (2,3-rasm) rentgenogrammalari farqi sintez qilingan namunalarning yangi modda ekanligini isbotlandi. Mochevina:HNO₃=1:1 va 1:2

nisbatda sintez qilingan birikmalar IQ spektrlaridagi keng yutilish sohasi 3680-3120 cm^{-1} ular tarkibida bog‘langan HNO_3 va mochevina molekulari birgalikda - $\text{O}\cdots\text{H}$ - bog‘lari hosil qilganini ko‘rsatdi.




2-rasm. Mochevina (a) va mononitromochevina (b) rentgenorammalari



3- rasm. a) MMMF b) MDMF larning rentgenorammalari

Mochevina $\nu(\text{C}=\text{O})$ 1695.43 cm^{-1} dagi tebranishi nitrat kislota bilan birikma hosil qilganda $>\text{C}=\text{O}\cdots\text{H}^+$ protonlanishi sababli 1633.75 cm^{-1} ($\sim 62 \text{ cm}^{-1}$) gacha past chastotali siljishiga olib kelgan. Mochevina spektridan farqli holda tarkiblari 1:1 ÷ 1:3 nitratlari spektrlarida $1327 \pm 10 \text{ cm}^{-1}$ dagi $\nu(\text{NO}_3^-)$ yutilish chiziqlari modda tarkibida NO_3^- ionlari mavjudligidan dalolat beradi (4-rasm).




4-rasm. a) Mochevina b) MMN, c) MDN, d) MTN IQ spektrlari

Sintez qilingan NM larining **termik xossalari** TGA, DTA va DSC usullari bilan o‘rganildi va ularning termogrammalari (5-rasm.a-c)ga ko‘ra ($20\text{-}600^\circ\text{C}$) ularda bir xil mexanizmdagi termik parchalanish jarayonlari borganligi aniqlandi (5-rasm). MMN ning suyuqlanishi 140°C da boshlanib, 167.83°C gacha davom etishi va $167.83\text{-}257.33^\circ\text{C}$ oralig‘ida ketma-ket boruvchi parchalanish tufayli 7.51 mg yoki 95.67% massa yo‘qotib, MNM avval $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ va HNO_3 ga, keyin HCNO - sianat kislota va N_xO_y gazlarigacha parchalangan.


Keyingi bosqichlarda sianat kislota va qoldiq mochevina: biuret (dimer) \rightarrow triuret (trimer) \rightarrow sianur kislota (halqasimon tuzulishli - triazin hosilasi) ga

aylangan. Termik parchalanish mahsulotlari 320°C va undan yuqori temperaturada barqaror bo‘lib, tarkibiy o‘zgarishlarga uchramaganligi, songgi massa kamayishi 0.499 mg (6.307%) ni tashkil etganligi grafikdan aniqlandi.




5-rasm. a) MMN, b) MDN, c) MTN larning TGA va DTA lari

CO(NH₂)₂ va HPO₃ lar ishtirokida MMMF molekulasida (NH₂)₂CO···HPO₃ tipidagi H-bog‘lari hosil bo‘lganligi IQ spektrda keng 2600-2800 cm⁻¹ oraliqdagi zaif yutilish maksimumlari mavjudligi bilan izohlandi (6-rasm).



6-rasm. HPO₃ (a), CO(NH₂)₂ (b), [CO(NH₂)₂·HPO₃] (c), [CO(NH₂)₂·2HPO₃] (d) larning IQ spektrlari

CO(NH₂)₂·2HPO₃ ning IQ spektri [CO(NH₂)₂·HPO₃] spektridan farqlanib, yuqori chastotali sohasida mochevinaga xos yutilish chiziqlari (6b,d-rasm) 3471.87 cm⁻¹ da qayd etilgan yutilish HPO₃ ning ν_(O-H) tebranishlariga xos bo‘lib, u >C=O guruhi kislorod atomlari ishtirokidagi MAV bog‘lari tufayli yuzaga kelgan. 3371.57 va 3203.76 cm⁻¹ dagi yutilishlar mochevina ν_{as} va ν_{s(N-H)} lariga to‘g‘ri kelib, NH₂ guruhlarining HPO₃ bilan o‘zaro




ta’sirda ishtirok etganligini ko‘rsatadi. 7-rasm. Biuret nitratlar IQ spektri Shunday o‘zgarish 1700–1500 cm⁻¹ da ham kuzatilib, mochevinaga xos ν_(C=O), ν_(C-N) va δ_(NH₂) tebranishlar birikma spektrida bitta keng, intensiv chiziqqa birlashib, 1631.76 cm⁻¹ da maksimum 1548.54 va 1485.19 cm⁻¹ da yelkasimon ko‘rinishlarda qayd etildi.

Biuret nitratlari hosil bo‘lishida NH₂ lar ishtirokini spektrning ν_{as}, ν_{s(NH)} va δ_(NH₂) tebranishlar sohalaridagi o‘zgarishlar tasdiqlaydi. Alohida biuret IQ spektridan farqli holda BMN spektrida dublet yutilish 3402, 3209 cm⁻¹ da

namoyon bo‘lib, ularning yuqori chastotali siljishi ($\sim 30-85 \text{ cm}^{-1}$) kuzatildi. Dublet chiziqlar chastotalari orasidagi farq 140 cm^{-1} dan 193.78 cm^{-1} ($\sim 53 \text{ cm}^{-1}$) ga kengaygani aniqlandi. Bunday anomal yuqori chastotali o‘zgarishlar biuret molekulasida o‘ziga xos konformatsiya o‘zgarishlari, ya’ni aminoatsil guruhlardan biri $-\text{HN}-\text{C}(\text{O})\text{NH}_2$ *sis*- holatdan *trans*-izomerga o‘tganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, biuretning $\delta_{(\text{H}-\text{N}-\text{H})}$ tebranishlari 1722.43 cm^{-1} da kuchsiz yutilish ko‘rinishida $\sim 10 \text{ cm}^{-1}$ ga past chastotali siljishi kuzatilib, $-\text{H}_2\text{N}\cdots\text{H}^+-\text{ONO}_2$ va $-\text{NH}_2\cdots\text{O}=\text{NO}_2-\text{H}$ turidagi MAV bog‘lari hosil bo‘lganini tasdiqlaydi. Bu moddalar spektrida biuret spektrida namoyon bo‘lmagan lekin, $1247.94, 1182.36$ (BMN), $1199.72, 879.54, 856.4$ (BDN) va $1197.79, 1163.08, 856.40, 775.4 \text{ cm}^{-1}$ (BTN) (7-rasm) dagi yutilish chiziqlari NO_3^- ga xos bo‘lib, tadqiq etilgan moddalar nitratli birikmalar ekanligini isbotlaydi. IQ-spektrlari asosida biuret nitratlari $[\text{>C}=\text{O}\cdots\text{H}^+-\text{ONO}_2^-]$ oksoniy va $-\text{NH}_2\cdots\text{H}^+-\text{O}-\text{NO}_2$ ammoniy nitrat ion juftlari vositasida hosil bo‘lganligi to‘g‘risida xulosa qilindi (7-rasm).

BMF larning IQS laridagi yutilishlar ayni birikmalarda kuchli H-bog‘lanishlari mavjudligini anglatadi.




8-rasm. Biuret (a), BMMF (b), BDMF(c) va BTMF(d) IQ spektrlari

Jumladan, ushbu tebranishlar BMMF spektrida 3398.57 va 3291.90 cm^{-1} da, BDMF 3419.79 va 3221.12 cm^{-1} hamda BTMF 3388.57 va 3226.91 cm^{-1} sohada kuzatilib (8-rasm), $1504, 1454 \text{ cm}^{-1}$ dagi yutilish chiziqlari (8-rasm) $\nu_{\text{as}(\text{C}-\text{N})} + \delta_{(\text{H}-\text{N}-\text{H})}$ va $1440, 1325 \text{ cm}^{-1}$ dagi yutilishlar $\nu_{\text{as}(\text{C}-\text{N})} + \delta_{(\text{H}-\text{N}-\text{H})}$ tebranishlar tegishli. Spektrning past chastotalari sohasi ($1200-600 \text{ cm}^{-1}$) da ham biuret molekulasining xarakterli tebranish chiziqlari mavjud (8-rasm). Ular $1157, 1130 \text{ cm}^{-1}$ dagi dublet va 1064.7 cm^{-1} dagi yakka o‘rta intensivlikdagi chiziqlar mos ravishda $\delta_{(\text{C}-\text{N}-\text{C})}$, $\delta_{(\text{C}-\text{N}-\text{H})}$, $\delta_{(\text{N}-\text{C}=\text{O})}$ tebranishlariga to‘g‘ri keladi. Bu siljishlar Biuret:HPO₃ molyar nisbatida kislota miqdorining ortib borishi bilan $(-\text{O}-\text{H}\cdots\text{NH})$ bog‘lanish soni va kuchi oshib borishini ko‘rsatadi. Ayniqsa BTMF namunasi spektrida past chastotalardagi siljish kuchliroq bo‘lib, bu H-bog‘lari asosida yuzaga kelgan molekulyar tuzilish mavjudligini bildiradi.

BMF namunalari rentgenogrammalarida yassi va diffuz chiziqlar mavjud bo‘lib, bu moddalar amorf holatga yaqin yoki kam kristallangan fazali ekanligidan dalolat beradi. Polikristallarning rentgen reflekslari $13.1; 19.7; 23.8; 29.4 \text{ kam}$

intensiv va notekis bo‘lib, bu kristall panjara tuzilmasining tartibsizlashganini va dastlabki moddalarning tanlangan molyar nisbatdagi reaksiyalarida ortiqcha HPO_3 ta’sirida polimer zanjirli yoki amorf tuzulishli birikmaligidan dalolat beradi.


Mochevina mononitrat kristalining tuzilishi RTT usuli bilan aniqlanib, ma’lumotlar 273 K da yig‘ildi. Kristall $P2_1/c$ fazoviy guruhiga mansub bo‘lib, elementar yacheyka parametrlari: $a = 8.149\text{Å}$, $b = 8.195\text{Å}$, $c = 7.477\text{Å}$; $\alpha = \gamma = 90^\circ$, $\beta = 104.80(7)^\circ$, $V \approx 482\text{Å}^3$. $Z = 4$, $R = 0.0406$ (9-rasm). Kristall ikkita tarkibiy qismlar: mochevina molekulasini - $\text{CO}(\text{H}_2\text{N})_2$ va nitrat anioni - NO_3^- dan iborat, ular o‘zaro kuchli ($\text{N}-\text{H}\cdots\text{O}$) H-bog‘lari hosil qilib, uch o‘lchovli barqaror supramolekulyar panjarani shakllantirgan. Planar geometriyali NO_3^- anionlari protonlangan mochevina bilan aniq yo‘nalgan H-bog‘lari orqali bog‘lanib, $[\text{O}_2\text{N}-\text{O}^-\cdots^+\text{H}-\text{NH}_2-\text{CO}-\text{NH}_2]$ tarkibli kristallarni hosil qilgan (9-rasm,a-c).



9-rasm. Mochevina mononitrat a- kristall tuzilishi, b- kristall taxlami, c-Hirshfeld yuzasi tahlili

Molekuladagi H va O atomlarining o‘zaro ta’siri Hirshfeld yuzasiga nisbiy hissalari $\text{O}\cdots\text{H}/\text{H}\cdots\text{O}$ 66.2 % va $\text{O}\cdots\text{O}$ atomlarining o‘zaro ta’siri 9.9 % ga tengligi $[\text{O}_2\text{N}-\text{O}^-\cdots^+\text{H}-\text{NH}_2-\text{CO}-\text{NH}_2]$ molekulada kuchli vodorod bog‘lanishlark mavjudligini tasdiqlaydi (9-rasm, a-c).

Biuret monogidrat kristall tuzilishi monokristal RTT usulida aniqlanib, ma’lumotlar 273 K da olindi. Kristall $P2_1/n$ fazoviy guruhiga mansub, parametrlari: $a = 3.651\text{Å}$, $b = 17.768\text{Å}$, $c = 7.962\text{Å}$; $\alpha = \gamma = 90^\circ$, $\beta = 95.080(5)^\circ$, $V=514.451\text{Å}^3$, $Z = 4$. $R=0.0474$. Kristall panjara biuret kationlari va suvning molekulari o‘rtasidagi aniq yo‘naltirilgan ($>\text{N}-\text{H}\cdots\text{O}-\text{HO}$) H-bog‘lari orqali shakllangan.



10-rasm. Biureta mononitratning: a- kristall tuzilishi, b- kristall taxlami, c-Hirshfeld yuzasi tahlili


Molekuladagi $\text{O}\cdots\text{H}/\text{H}\cdots\text{O}$ ta’sirlari Hirshfeld yuzasining eng katta qismini tashkil etadi (50.3%) va bu dominant ta’sir hisoblanadi. Kislorod atomlari bilan vodorod atomlari o‘rtasidagi bu ta’sirlar, asosan, H-bog‘lanishlarini ifodalaydi. Van-der-Vaals ta’sirlarini ifodalovchi $\text{H}\cdots\text{H}$ atomlari ham Hirshfeld yuzasining sezilarli qismini egallaydi (27.9%) (10-rasm, a-c).

Sintez qilingan kompleks birikmalarning amalda qo‘llanilishi

Mochevina, biuret nitratlari va metafosfatlarining amalda foydalanish sohasini aniqlash maqsadida “tarkib-xossa” bog‘liqligi asosida, ularning 1:1÷1:3 molyar nisbatlardagi turli konsentratsiyali eritmalarining kam eriydigan moddalar eruvchanligiga ta’siri, antipirenlik va antikorroziyon xossalari tadqiq qilindi va ularning natijalari quyida keltirilgan.

Tajribalarda turli metall ionlarining sanoat jihozlari chiqindi (quyqa)lari va dehqonchilik ekin yerlari tuproqlari tarkibida bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki akkumulyatsiyalanadigan kam eruvchan (oksid, fosfat, sulfat, gidroksi karbonat) birikmalari eruvchanliklari tadqiq etildi. Buning uchun CaHPO_4 , Fe_2O_3 , $\text{CaSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ va $(\text{CuOH})_2\text{CO}_3$ larning $[\text{CO}(\text{NH}_2)_2 \cdot n\text{HNO}_3]$ ($n=1\div 3$) eritmalari ta’sirida eruvchanliklari o‘rganildi. Umumiy holda MN tarkibida HNO_3 ulushining ($n=1 < 2 < 3$) ortib borishi bilan bu birikmalarning eruvchanligi ortishi kuzatildi.

